

“DUNYO TA’LIMI SIFATINI OSHIRISHNING ILG‘OR USULLARI ILMIY JURNALI”

5-May, 2026-yil

ZOKIRJON XOLMUHAMMAD OG‘LI FURQAT TARIXDA O‘ZIGA XOS O‘RIN QOLDIRGAN INSON

Qo‘yilov Sardor Komiljon o‘g‘li

Toshkent Arxitektura Qurilish Unversiteti

Muhandislik fakulteti Atrof muhit muhandisligi yo‘nalishi

3-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Zokirjon Xolmuhammad og‘li Furqat haqida so‘z boradi. Shuningdek, uning hayot yo‘li, undagi qiyinchiliklar, ijodga kirib kelishi, ijodiy faoliyati, sayohatlari va undagi taassurotlari, yaratgan asarlari hamda tarjimalari, boy ijodiy merosi haqida ham aytib o‘tiladi.*

Kalit so‘zlar: *Qo‘qon, "Sarguzashtnoma", Xo‘jand, rus madaniyati, Yorlent, davrlar, lirik she‘rlar.*

Furqat o‘zbek demokratik adabiyotining mashxur namoyandalaridan biri bo‘lib, u uzbek demokratik adabiyotida ma‘rifatparvarlik yo‘nalishining eng jo‘shqin kuychisi sifatida ijod etdi. Furqatning adabiyot va madaniyatimiz tarixidagi o‘rni va qimmatini xam shu bilan belgilanadi. Furqat O‘rta Osiyoning Rossiyaga qo‘shib olinishi natijasida tug‘ilgan yangi ijtimoiy ongning progressiv xarakterini adabiyotda tartib qilgan ijodkorlardan biridir. O‘rta Osiyodagi ijtimoiy-falsafiy ong tarixining muhim taraqqiyot bosqichi sifatida maydonga kelgan bu progressiv madaniy-adabiy oqim qoloqlikka, nodonlikka, o‘rta asr jaxolatining har qanday ko‘rinishlariga qarshi kurash ochdi, zamonaviy ilm-ma‘rifatni, madaniyatni, taraqqiyotni tartib etdi. Furqat o‘z bilimi va butun qobiliyatini xalq xizmatiga bag‘ishlab, maorif, erkinlik va baxt kuyini kuylagan ma‘rifatparvar demokrat shoirdir.

Zokirjon Furqat 1858-yilda Qo‘qon shahrida hunarmand oilasida tug‘ildi. Uning otasi Xolmuxammad, shirning o‘z ta‘biri bilan aytganda, "juz‘yot ilmiga iqtidori bo‘lgan", san‘at-adabiyot bilan qiziquvchi, zamonasining peshqadam kishilaridan edi. Zokirjon Furqat boshlang‘ich ma‘lumotini o‘sha zamonning eski usuldagi maktablaridan birida oldi. U o‘zining maktabda o‘qishi va usha davrdagi hayoti to‘g‘risida so‘ngroq, 1891-yilda yozgan "Sarguzashtnoma" asarida batafsil so‘zlaydi. Zokirjon Furqatda adabiyotga havas juda erta uyg‘ondi. U sakkiz-to‘qqiz yoshlarida, maktabda o‘qib yurgan kezlarda Sharq klassiklarining asarlarini zo‘r maroq bilan o‘qir edi. U, ayniqsa, ulug‘ o‘zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiyga zo‘r muhabbat qo‘ygan edi. Zokirjon Furqatda badiiy zavqning bunday erta uyg‘onishida, shubxasiz, adabiyot havaskori ("juzixon") bo‘lgan otasi ham katta rol o‘ynagan. 1870-yilda Zokirjon Furqat maktabni muvaffaqiyat bilan tugatgach, Qo‘qon madrasalaridan biriga o‘qishga kirdi. Zehnli va iste‘dodli Zokirjon Furqat madrasada o‘qitiladigan bilimlarni tezlik va osonlik bilan o‘zlashtirib bordi, arab grammatikasiga, mantiq (logika) va falsafaga oid kitoblarni yaxshi o‘rgandi. Uning Sharq klassik adabiyotiga bo‘lgan qiziqishi borgan sari ortib borib, xususiy mutolaaga qattiq

“DUNYO TA’LIMI SIFATINI OSHIRISHNING ILG‘OR USULLARI ILMIY JURNALI”

5-May, 2026-yil

berildi. Zokirjon Furqat shu madrasada o‘ib yurgan vaqtlaridayoq Xofiz, Bedil, Jomiy, Fuzuliy va Navoiy ijodlari bilan chuqur tanishgan va Sharq poeziyasining boy ijodiy tajribasidan yaxshi xabardor edi. Biroq Zokirjon Furqatning madrasadagi o‘qishi uzoq davom etmadi. 1875-yilda Qo‘qon xonligida avj olib ketgan o‘zaro urushlar tufayli madrasa yopildi. Furqat ham o‘qishni to‘xtatib, turmush ishlari bilan shug‘ullanishga majbur bo‘ldi. "Lekin ilm-maorifga, ayniqsa, san‘at-adabiyotga havasi kuchli bo‘lgan Zokirjon Furqat xususiy mutolaa yo‘li bilan o‘z ma‘lumotini tinmay chuqurlashtirib bordi.

Zokirjon Furqat bir necha yil Qo‘qonda otasi yonida tirikchilik ishlari bilan mashg‘ul bo‘lgandan so‘ng, 1878-yilda yangi Marg‘ilonga to‘rasi yoniga bordi va u yerda bir necha yil savdo ishlari bilan band bo‘ldi. Zokirjon Furqat hayotida yangi Marg‘ilon, shahri sezilarli iz qoldirdi. Chunki yangi Marg‘ilon ruslarning Fargona vodiysiga kelganlaridan keyin bino qilingan yangi tipdagi shaxar bo‘lib, bu shahar, bu yerdagi rus madaniyati ko‘rinishlari, hayotiy yangiliklar shoir diqqatini jalb etdi. Furqatning "Sarguzashtnoma"da bergan ma‘lumotiga ko‘ra u ko‘pgina hayotiy xodisalar bilan, jumladan, "Turkiston viloyatining gazetasi" bilan shu yerda tanishgan edi. Furqatning yangi Marg‘ilondagi hayoti uchun ikkinchi xarakterli xususiyat shuki, u xalq o‘rtasida bilim tarqatgan (manbalarda Furqatning o‘qituvchi sifatida shogirdlar saqlagani va dars bergani xabar qilinadi) va odamlar dardiga malham bo‘lgan (Furqat turli shikoyatlar bilan kelgan kishilarga ariza yozib bergan va yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsatgan). Furqat yangi Marg‘ilonda adabiy-ijodiy ishini ham davom ettirgan. Manbalarda Furqatning shu vaqtlarda tog‘asini qistovi va bevosita ishtiroki bilan yangi Marg‘ilonda uylanganligi xabar qilinsa xam, lekin yosh shoirning rafiqasi kim bo‘lganligi ko‘rsatilmaydi. Furqat 80-yillarning boshlarida Qo‘qonga qaytadi va butunlay ijodiy ish bilan mashg‘ul bo‘ladi. Furqatning Qo‘qonda Muqimiy atrofida tashkil topgan adabiy xarakatga qo‘shilishi va unda aktiv ishtirok etishi shu vaqtlarga to‘g‘ri keladi. Furqatning o‘z "Sarguzashtnoma"sida bergan ma‘lumotiga ko‘ra, bu paytda shoir yigirma to‘rt yoshlarda bo‘lgan.

Furqat bu davrda kichik xajmdagi lirik she‘rlar yozish bilan birga, badiiy tarjima bilan ham shug‘ullanib, mashxur "Chor darvesh" qissasini forschadan o‘zbekchaga tarjima qildi; Sharq adabiyotida keng tarqalgan mashxur syujetlardan ijodiy foydalanib ular asosida "Xammomi xayol", "Nux manzar" asarlarini yaratdi. Lekin Furqatning bu asarlari hozirgacha topilmagan.

Furqat, taxminan, 80- yillarning o‘rtalarida o‘zining lirik she‘rlarini yig‘ib, to‘plam tuzgan. Bu haqda u o‘z "Sarguzashtnoma"sida "G‘azal va muxammaslarim avroqini daftar sherozasiga bog‘lab jam qildim", - deb xabar qiladi. Furqat adabiy merosida uchraydigan "Bayoz" radifli she‘r ham (Muqimiy xujrasi - muzeyida saqlanmoqda) mazkur to‘planning tuzilganidan dalolat beradi:

Topdi oroyish tazallardanki, xar bir misrai,
Komati barjastai bir shuxi siyminbar bayoz.
Xar qachonkim, ochdi tab‘im boridin bir toza gul,
Bog‘ladim guldasta, Furqat, ayladim daftar bayoz.

“DUNYO TA'LIMI SIFATINI OSHIRISHNING ILG'OR USULLARI ILMIY JURNALI”

5-May, 2026-yil

Furqat hayotida Qo'qonda tashkil topgan Muqimiy boshchiligidagi adabiy guruh katta rol o'ynadi. Shoirning 80-yillarning boshlaridan 1889-yillargacha bo'lgan Qo'qondagi hayoti shoir dunyoqarashini shakllantirdi, ijodini kamol toptirdi. Furqatning Muqimiy, Zavqiy, Nisbat, Muxayyir kabi ilg'or fikrli shoirlar bilan shaxsiy aloqada bo'lishi va ular bilan ijodiy hamkorlik qilishi faqat Furqatning shaxsiy xayotidagina emas, balki demokratik adabiyotning tug'ilishi va shakllanishida ham katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Manbalardagi ma'lumotlarga ko'ra, 80-yillarning oxirlarida Furqat Marg'ilonga borgan, u yerda bir necha vaqt yashab, adabiy-ijodiy ishlar bilan shug'ullangan, olimlar bilan tanishib, o'z ma'lumotini chuqurlashtirgan. 1889-yilda Furqat sayohat qilish maqsadida Marg'ilondan chiqib Qo'qon orqali Xo'jand (hozirgi Leninobod)ga keladi. Furqat ijodiy merosidagi mazmun jihatdan g'oyat xarakterli bo'lgan "Tuf" radifli satirik she'r shu davrda yaratilgan bo'lishi mumkin. Shoir bilan hukmron doiralarda o'rtasidagi kelishmovchilikdan darak beruvchi bu she'r shoirning o'z vatani Qo'qon shahrini tark etib, umrining oxirigacha u yerga qaytib kelmasligining sabablarini ma'lum darajada izoxlab beradi. Furqat Xo'jandda bir necha vaqt yashagandan so'ng yana sayoxatga otlandi.

U 1889-yilning iyun oyida Toshkentga keldi va bu yerda qariyb ikki yil turib qoldi. Bu davr Furqat hayoti va ijodiy takomilida muhim rol o'ynadi. Furqat Toshkentdagi do'stlari va muxiblarining yordami bilan "Ko'kaldosh" madrasasidan bir xujra olib, shu yerda yashay boshladi. Furqat Toshkentga kelgandan so'ng butun borligi bilan hayotga sho'ng'idi va ijodiy ishga berildi. U o'z odatiga ko'ra maxalliy madaniyat namoyandalari - shoirlar, san'atkorlar va ilm axllari bilan tanishdi, ular bilan suxbatlar, adabiy o'tirishlar, mushoiralar o'tkazdi, ijodiy xamkorlik qildi. Toshkentda Furqat ko'proq ilg'or rus madaniyatiga, uning yangiliklariga qiziqdi. Chunonchi, u "Turkiston viloyatining gazetasi" redaksiyasida va bosmaxonalarda bo'lib, matbaachilik ishlari bilan tanishdi. Gimnaziyada, rus-tuzem maktablarida bo'lib, yangicha usulda o'qish-o'qitish ishlarini ko'rdi, zamonaviy ilm va maorifdan xabardor bo'ldi. Teatr, konsert tomoshalariga, klub va boshqa jamoat muassasalariga bordi, ulardagi yangiliklarni zo'r zavq-shavq bilan kuzatdi. Shubxasiz, Furqat Toshkentda maxalliy madaniyat arboblari bilan do'stlashgani singari, ilg'or rus madaniyati arboblari bilan ham tanishgan, do'stlashgan va xamkorlik qilgan.

Toshkentda Furqatning rus madaniyati bilan yaqindan tanishuvi uning dunyoqarashida katta o'zgarish yasadi, shoir ongida turmushga yangicha qarashning shakllanishiga zo'r turtki bo'ldi. Natijada shoirning ijodida yangi-yangi motivlar, g'oyalar paydo bo'ldi, dunyoqarashida jiddiy o'zgarishlar tugildi. Bu davrda Furqat hayotning istiqboli taraqqiyot va yuksalish uchun kurashda ekanini yaqqol tushundi va shu fikrlarni o'zining ko'p asarlarida qizg'in targ'ib qildi. Furqatning dunyoqarashida hosil bo'lgan bu yangi qarashlarni ko'rsatish jixatdan uning "Sarguzashtnoma"da klub xaqida bayon qilgan fikri aloxida diqqatga sazovordir:

"Men Toshkentda klubga bir necha musulmonlarning borganini kurdim va eshitdim. Men o'ylaymanki, buni gunoxi yo'qdir. Bilaks, biz musulmon xalqi Rusiya tirikchiligini ko'rib, xursandlik va marg'ub ishlarini o'zimiznikiga qiyos qilib olmog'imiz kerakdir".

“DUNYO TA’LIMI SIFATINI OSHIRISHNING ILG‘OR USULLARI ILMIY JURNALI”

5-May, 2026-yil

Furqat 1891-yilning may oyida Toshkentdan chiqib, Samarqandga bordi. U yerda do‘sti, tarixchi olim Mirza Buxoriy bilan uchrashib, bir necha vaqt yashadi. Oradan ko‘p o‘tmay Furqat sayoxat niyati bilan yana yo‘lga tushdi. Shu bilan shoirning ikki yildan ko‘proq davom etgan O‘rta va Yaqin Sharq mamlakatlari bo‘ylab qilgan sayoxati boshlandi. Furqat Samarkanddan Krasnovodsk orqali Bokuga bordi, undan Istambulga o‘tdi. Furqat 1891-yilning kuz va qish oylarini Istambulda o‘tkazib, 1892-yilning baxorida Arabistonga yo‘l oldi. Shu yilning yoz oylarida Arabistondan Misrga, Bolgariyaga, Yunonistonga sayoxat qildi. 1892-yilning kuz oylarida yana Arabistonga qaytdi, unda bir necha vaqt turib, o‘sha yilning oktyabr oyida Xindistonga qarab yo‘l oldi va Bombay shahriga borib tushdi. Furqat Bombayda Mavlaviy Ikromiddin nomli bir sayyox bilan tanishdi va do‘stlashdi. Bu ikki do‘st Xindiston viloyatlariga sayoxatga otlandilar. Ular Sarandib (Seylon oroli), Kashmir viloyatlarini tomosha qildilar. Furqat qish faslini Xindistonda o‘tkazib, 1893-yilning boshlarida Xindistondan Tibet orqali Xitoyga o‘tdi va Xo‘tan shaxriga keldi, unda bir necha vaqt yashab, Yorkent shahriga o‘tdi va shu yerda turg‘un bo‘lib qoldi. Shunday qilib, Furqatning ikki yildan ko‘proq davom etgan Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlari bo‘ylab qilgan sayoxati Yorkentda tugallandi.

Shoir Yorkentda qariyb o‘n olti yil umr kechirdi. Furqat bu yerda Yonaxon ismli uyg‘ur qiziga uylanib, undan uch farzand va Nodirjon ismli o‘g‘illar ko‘rdi. Furqat uzoq muddat chet ellarda yashagan bo‘lsa ham, xech qachon o‘z vatanini unutmadi. U umrining oxirigacha Qo‘qon, Toshkent, Andijon, Marg‘ilon va boshqa shaxarlardagi do‘stlari bilan xat orqali aloqa kilib turdi; u "Turkiston viloyatining gazetisi" bilan xam o‘z aloqasini uzmasdi. Uning she‘rlari, maqolalari, xabarlarisi bu gazeta saxifalarida bosilib turdi.

Furqat Yorkentda o‘z ijodiy ishini davom ettirdi. Furqatning bu davrda yozgan asarlari bizgacha to‘liq yetib kelmagan bo‘lsa xam, uning ko‘p va ajoyib jushqin she‘rlar yozgan bo‘lishi, shubxasizdir. Furqat Yorkentda Rusiya fuqarosi sifatida xayot kechirdi. U butun umri bo‘yi ezgu niyatlar bilan yashab, o‘z orzulariga yeta olmay, 1909-yilda Yorkent shaxrida muxojirlikda vafot etdi.

Furqat ijodiy merosini, shakli va mazmuniga qarab, quyidagi gruppalariga bo‘lish mumkin:

- a) lirikasi;
- b) ma‘rifatparvarlik ruhidagi asarlari;
- v) dostonlari;
- g) memuarlari;
- d) publitsistikasi;
- e) ilmiy asarlari;
- j) badiiy tarjimalari.

Furqat bosib o‘tgan ijodiy yo‘l bir-biridan ravshan farq qiladigan quyidagi davrlarga bo‘linadi:

“DUNYO TA’LIMI SIFATINI OSHIRISHNING ILG‘OR USULLARI ILMIY JURNALI”

5-May, 2026-yil

1. Furqatning Farg‘ona vodiysida yashagan davridagi ijodi. Bu davr, taxminan, 70-yillarning o‘rtalaridan 1889-yilgacha, ya’ni shoirning Farg‘onadan chiqib ketguniga qadar bo‘lgan vaqtni o‘z ichiga oladi. Bu davrda Furqat, asosan, lirik shoir sifatida ijod etadi.

2. Furqatning Toshkentda yashagan davridagi ijodi. Bu davr ikki yilni (1889-1891) o‘z ichiga oladi. Furqatning bu davrdagi ijodi uchun ma’rifatparvarlik motivlari xarakterlidir.

3. Z. Furqatning chet ellarda yashagan davridagi ijodi. Bu davr 1891-yildan 1909-yilgacha, ya’ni shoir vafotigacha bo‘lgan vaqtni o‘z ichiga oladi. Furqat o‘z ijodining bu bosqichida lirik va ma’rifatparvar shoir sifatida asarlar yozishni davom ettirdi. Furqat ijodidagi vatanparvarlik g‘oyalari bu davrda g‘urbat, ayriliq oxanglari bilan yangradi.

Furqat lirikasining xarakterli xususiyatlaridan biri undagi g‘urbat motivlaridir. Furqat poeziyasida, ayniqsa, shoirning chet ellarda yashagan davrida yaratgan she’rlarida bu motiv keng ishlandi. Furqat otashin vatanparvar shoir edi. U o‘z xalqini, o‘z ona vatanini cheksiz muxabbat bilan sevar, uning istiqboli, baxt-saodati haqida qayg‘urar edi. Furqat uzoq muddat chet ellarda yashagan davrida ham o‘z vatanini, xalqini unutmadi. Garchi, Xitoy tuprog‘i Furqat uchun ikkinchi vatanga aylanib qolgan bo‘lsa ham, u o‘zining g‘urbatda ekanini sezmasligi mumkin emas edi. Chunki shoirni o‘z Vatani bag‘rida yayrash, ijodi bilan xalqiga xizmat qilish baxtidan maxrum etgan edilar. Xokim guruxlar, ularning fitna va ig‘volari shoirni o‘z Vatani tashlab chiqishga majbur etgan va uning qaytib kelish yo‘llarini to‘sib qo‘ygan edi. Furqat poeziyasida keng ishlangan g‘urbat motivlarini uning biografiasidagi shu nuqta bilan, shoir va xukmron muxit o‘rtasidagi shu konflikt bilangina izoxlash mumkin. Bu jixatdan uning "Adashganman" muxammasi, "Bir qamar siymoni ko‘rdim", "Bechiz nest" g‘azallari diqqatga sazovordir.

Furqat kichik xajmdagi lirik she’rlar (g‘azallar, muxammaslar va boshqalar), o‘rtacha xajmdagi syujetli she’rlar (masnaviylar) yozish bilan birga, katta xajmdagi epik asarlar dostonlar ham yaratdi. Bizgacha Furqatning uch dostoni "Suvorov xaqida", "Yunon mulkida bir afsona" va "Bir mojaro" dostonlari yetib kelgan. Shunisi diqqatga sazovorki, bu uch doston uch xil xarakterdadir. "Suvorov xaqida" dostoni tarixiy-biografik xarakterga ega bo‘lsa, "Yunon mulkida bir afsona" dostoni yarim afsonaviy tusdagi sarguzashtni bayon qiluvchi romantik dostonidir; "Bir mojaro" dostoni esa Furqat davri xayotidan olingan bo‘lib, tanqidiy-satirik xarakterga egadir.

Furqat 1891-yilda Toshkentda o‘zining boshidan kechirganlarini, ya’ni tarjimai xolini yozib chiqdi. Bu asar "Turkiston viloyatining gazetisi" sahifalarida (1891-yil yanvar - iyun sonlarida) bosildi. Avtobiografik xarakterdagi bu asar "Xo‘qandlik shoir Zokirjon Furqatning axvoloti, o‘zi yozg‘oni" deb atalgan bo‘lsa xam, bu sarlavxa asarga nom bo‘la olmaydi. Shuning uchun uni, Furqatning o‘ziga asoslanib, "Sarguzashtnoma" deb atash to‘g‘riroq bo‘ladi.

"Sarguzashtnoma" memuar asar sifatida qimmatli ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Bu asarda Furqat o‘zining bolalik davridan boshlab 1891-yilgacha, ya’ni Toshkentdan chiqib ketguncha bo‘lgan davr ichida boshidan kechgan voqealar to‘g‘risida fikr yuritadi. Furqatning Qo‘qonda o‘tgan yoshlik davri, oilaviy hayoti, maktab va madrasada o‘qishi,

“DUNYO TA’LIMI SIFATINI OSHIRISHNING ILG‘OR USULLARI ILMIY JURNALI”

5-May, 2026-yil

yangi Marg‘ilonga borishi u yerdagi mashg‘uloti, Qo‘qonga qaytib kelishi, Muqimiy boshchiligidagi adabiy xarakterda ishtirok qilishi, shoir sifatida shuxrat qozonishi va, nixoyat, 1891-yilda Qo‘qondan Xo‘jand (Leninobod) orqali Toshkentga kelishi va Toshkentdagi hayoti bu asarda yorqin epizodlar orqali ravon uslubda hikoya qilinadi. "Sarguzashtnoma" Furqat tarjimai xolini o‘rganishda eng qimmatli xujjat bo‘lib, u bebaxo mo‘tabar manba sifatida tadqiqotchilar tomonidan foydalaniladi.

Furqat birinchi o‘zbek jurnalistidir. Uning Toshkentda yashagan davrida "Turkiston viloyatining gazetasi" redaksiyasida ishlagani ma‘lum. Furqat bu davrda va bundan keyin chet ellarda sayoxat qilib yurgan kezlari, Yorkentda yashagan vaqtida xam o‘z she‘rlari, xabarlari va publisistik makolalarini gazeta redaksiyasiga yuborib turdi. Furqat gazeta saxifasida bosilgan maqolalarida otashin vatanparvar, mazlum Sharq xalqlarining samimiy do‘sti, tajovuzkor imperialistlarning murosasiz dushmani sifatida ko‘z o‘ngimizda gavdalanib turadi. Bu jihatdan shoirning "Xo‘qandlik Zokirjon Furqatniig "Pesani axbor" nom Xindiston gazetidin naql qilib yozgan xabari" sarlavxali makolasi va "Rus askarlari ta‘rifida" she‘ri diqqatga sazovordir.

Furqat badiiy tarjima bilan ham shug‘ullangan. U Sharq adabiyotining mashhur namunalaridan bir nechtasini o‘zbek tiliga tarjima qilgan. Biroq, bu tarjimalar hozirgacha topilgan emas. Furqat o‘z "Sarguzashtnoma"sida quyidagi kitoblarni uzbek tiliga tarjima qilganligini aytadi:

1. Xammomi xayol, she‘riy tarjima.

2. Chor darvesh, forschadan proza yo‘li bilan o‘zbekchaga tarjima.

3. Nux manzar. Bu xaqda Furqat: "Nux manzar nom bir kitobni turki manzuma ayladim", - deb yozadiki, bundan Furqatning bu asarni erkin tarjima qilgani ma‘lum bo‘ladi.

Xulosa. Shoir Furqat uzoq asrli adabiyotimiz tarixida o‘ziga xos uslubi bilan alohida o‘rin tutadi. Furqatning g‘oyat boy va mazmundor ijodiy faoliyati xalqimiz tarixining burilish nuqtasi xisoblangan XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida kechdi. Furqat ijodining muxim tarixiy axamiyati shundaki, u o‘z davrining progressiv namoyandasi sifatida madaniy va adabiy xayotning birinchi safida bordi, ijtimoiy hayotning asosiy tub masalalarini ilg‘or pozitsiyadan, xalq manfaatlari nuqtai nazaridan turib xalq qildi, kuyladi. Furqat ijodining originalligi ham uning o‘z davri adabiy hayoti bilan hamnafas bo‘lishligidadir. Furqatning kelgusi avlodlar uchun aziz va qadrdon bo‘lishining sababi xam shoir ijodining yuksak g‘oyaviyligi va xalqchilligidadir. Furqatning boy va mazmundor ijodiy faoliyati madaniyatimiz va adabiyotimiz tarixi taraqqiyotida chuqur iz qoldirdi.

Furqat Sharq poeziyasining ajoyib namunalarini yaratgan lirik shoir, ilm-madaniyatni, taraqqiyotni tinmay targ‘ib qilgan ma‘rifatparvar arbob, qimmatli memuar asarlar yozib qoldirgan prozaik, olim, tarjimon va publisistdir. Furqat o‘z xalqining sodiq farzandi sifatida butun kuch va qobiliyatini, ijodiy talantini xalq ishi uchun sarf etdi, xalqning ozodlik yo‘lida olib borayotgan kurashida o‘z asarlari, ajoyib qo‘shiqlari va achchik xajvlari - satiralari bilan ishtirok etdi. Furqat ijodi o‘sha davr xayotini o‘rganishda ilmiy-ma‘rifat

“DUNYO TA’LIMI SIFATINI OSHIRISHNING ILG‘OR USULLARI ILMIY JURNALI”

5-May, 2026-yil

axamiyatga ega bo‘lishi bilan birga, xozirgi kunimiz uchun muxim tarbiyaviy, amaliy axamiyatga xam molikdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

6. G‘.K.Karimov "O‘zbek adabiyoti tarixi"
7. "Adabiyot (II kitob) " – akademik litseylar uchun
8. Wikipedia.uz